

OLIJ TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHNING USLUBIY YONDASHUVLARI

Musayev Bekjon Shukurillayevich

SamISI, "Marketing" kafedrası professor v.b., PhD.

Azamatov Suxrob Bahrillo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Oriental universiteti
magistri

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning uslubiy yondashuvlari tizimli tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqildi hamda sifat menejmentini shakllantirishda jarayonli, tizimli, vaziyatli va miqdoriy yondashuvlarning o'rni asoslab berildi. Ta'lim xizmatlari tuzilmasi va ularning sifatga ta'sir etuvchi omillari tahlil qilindi. Natijada, yondashuvlarning integratsiyasi ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ilmiy xulosalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim sifati, sifat menejmenti, uslubiy yondashuv, jarayonli yondashuv, tizimli yondashuv, boshqaruv samaradorligi.

Аннотация

В статье были исследованы методологические подходы к повышению качества услуг высшего образования на основе системного анализа. Деятельность высших учебных заведений рассматривалась как сложная социально-экономическая система. Обоснована роль процессного, системного, ситуационного и количественного подходов в формировании системы менеджмента качества. Проанализирована структура образовательных услуг и факторы, влияющие на их качество. Результаты показали, что интеграция подходов способствовала повышению качества образования и эффективности управления. На основе полученных выводов разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: высшее образование, качество образования, менеджмент качества, методологический подход, процессный подход, системный подход, эффективность управления.

Abstract

This article examined methodological approaches to improving the quality of higher education services based on a systematic analysis. Higher education institutions were considered as complex socio-economic systems. The role of process, system, situational, and quantitative approaches in the development of quality management was substantiated. The structure of educational services and key factors influencing quality were analyzed. The results showed that the integration of these approaches contributed to improving educational quality and management efficiency. Based on the findings, practical recommendations were developed.

Keywords: higher education, education quality, quality management,

methodological approach, process approach, system approach, management efficiency.

KIRISH

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy institutsional omillardan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim tashkilotlari nafaqat yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, balki innovatsion g'oyalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda inson kapitalini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu yo'nalishlar oliy ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim xizmatlari bozori shakllanib borayotganligi ta'lim tashkilotlari faoliyatiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda oliy ta'lim muassasalari nafaqat ta'lim beruvchi subyekt, balki xizmat ko'rsatuvchi, innovatsion va boshqaruv tizimlariga ega bo'lgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu esa ta'lim sifatini boshqarishda an'anaviy yondashuvlardan tashqari zamonaviy, ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish jarayonini tizimli, jarayonli, vaziyatli hamda boshqa zamonaviy yondashuvlar asosida o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim sifati ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u faqat o'quv jarayoni bilan cheklanmay, balki boshqaruv, infratuzilma, inson kapitali va tashqi muhit omillari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish, ularning nazariy asoslarini yoritish hamda amaliy qo'llash yo'nalishlarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar ta'lim sifatini boshqarishning nazariy asoslari, baholash mezonlari hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan.

Mahalliy olimlardan B.N. Navruz-Zoda oliy ta'lim tizimida sifatni ta'minlashning institutsional asoslarini chuqur tahlil qilib, ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va sifat menejmenti tizimining ahamiyatini asoslab bergan. Muallif ta'lim sifatini oshirishda boshqaruvning kompleks yondashuvlari va ichki nazorat mexanizmlarining

muhimligini ta'kidlaydi [3].

B.Sh. Musayevning ilmiy ishlarida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda zamonaviy marketing va raqamli texnologiyalarning o'rni alohida yoritilgan. Tadqiqotda ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularning sifati va jozibadorligini oshirish mumkinligi asoslangan [4].

A.B. Nizamov va Sh.K. G'afurova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini modellashtirishning uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Ular ta'lim sifatini boshqarishda tizimli, jarayonli va modellashtirish yondashuvlarini uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy asoslab bergan [5].

Normativ-huquqiy manbalarda ham oliy ta'lim sifatini oshirish masalalari muhim yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sifatini ta'minlash, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan [2]. Shuningdek, Konstitutsiyada har bir fuqaroning sifatli ta'lim olish huquqi mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bu ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi [1].

Xorijiy ilmiy yondashuvlarda esa sifat menejmenti konsepsiyalari, xususan, umumiy sifat menejmenti (TQM), uzluksiz takomillashtirish va jarayonli boshqaruv tamoyillari asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari keng yoritilgan. Ushbu yondashuvlar ta'lim tizimida natijadorlik, tizimlilik va iste'molchiga yo'naltirilganlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning uslubiy yondashuvlarini o'rganish va ilmiy asoslash maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan, induksiya va deduksiya usullari orqali mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilib, ta'lim sifatini boshqarishning asosiy qonuniyatlari aniqlashtirildi. Mantiqiy tahlil yordamida oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi va ularning samaradorlikka ta'siri o'rganildi.

Monografik kuzatuv usuli orqali oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati va ta'lim xizmatlari tuzilmasi chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, makon va zamon usuli asosida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar dinamikasi va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari baholandi. Tizimli yondashuv asosida esa sifat menejmenti elementlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Qo'llanilgan metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tashkilotlari zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat bilim beruvchi tashkilot, balki ko'p funksiyali xizmat ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizim ta'lim xizmatlari bozorida faol ishtirok etib, inson kapitalini shakllantirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash hamda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni quyidagi

asosiy yoʻnalishlar boʻyicha turlarga ajratilgan¹: Yaʼni:

1. Davlat taʼlim standartlariga va taʼlim dasturlariga mos keladigan bevosita taʼlim xizmatlari. Bularga:

- taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha mahalliy va xorijiy talabalarni oʻqitish;
- ikkinchi taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha talabalarni oʻqitish;
- magistratura mutaxassisliklari boʻyicha magistrnlarni oʻqitish;
- mustaqil izlanuvchi va doktorantlarni tayyorlash;
- individual rejalar boʻyicha oʻqitish va boshqalar.

2. Asosiy oʻquv jarayonining sifati va jozibadorligini oshiradigan qoʻshimcha taʼlim xizmatlari. Bularga:

- oliy oʻquv yurtlariga kirishga tayyorlash;
- xorijiy tillarni oʻrgatish;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;
- maxsus fanlarni oʻquv rejada va fan dasturlarida keltirilgan soatdan tashqari oʻqitish;

- davlat standartlarida boʻlmagan fanlarni oʻqitish;

- tadbirkorlik tuzilmalari, davlat organlari hamda tashkilotlarining buyurtmalari boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.

3. Talabalar va professor-oʻqituvchilarning kundalik va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan xizmatlar. Bularga:

- talabalar va professor-oʻqituvchilar uchun umumiy ovqatlanish xizmatlari;
- turar joy xizmatlari;
- tibbiy-madaniy xizmatlar;
- avtoturargoh xizmatlarini tashkil etish va hokazolar.

1-jadval.

Oliy taʼlim tashkilotlarida sifat menejmentini joriy qilishning uslubiy yondashuvlari²

№	Uslubiy yondashuvlar	Mazmuni
1	Jarayonli yondashuv	Ushbu yondashuvga koʻra, tashkilot faoliyati oʻzaro bogʻlangan va ketma-ket amalga oshiriladigan jarayonlar majmuasi sifatida qaraladi. Har bir jarayon (masalan, oʻquv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va takomillashtirish) boshlash, tugatish va resurslar bilan taʼminlashga asoslaniladi. Jarayonlar oʻrtasidagi uzviylikni taʼminlash orqali sifatni barqaror darajada ushlab turish va doimiy yaxshilash imkoniyati yuzaga keladi. Bu yondashuv, ayniqsa, uzluksiz takomillashtirib borishga bevosita bogʻliqdir.
2	Tizimli yondashuv	Oliy taʼlim tashkilotlari murakkab ochiq tizim sifatida qaraladi va u oʻzaro bogʻliq elementlar - inson resurslari (xodimlar, professor-oʻqituvchilar, talabalar), tashkiliy tuzilma, vazifalar, boshqaruv mexanizmlaridan tashkil topadi. Mazkur elementlar oʻzaro integratsiyalashgan holda faoliyat

¹ Musayev B.Sh. Oliy taʼlim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targʻib qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand: SamISI, 2024.

² Muallif ishlanmasi

№	Uslubiy yondashuvlar	Mazmuni
		yuritadi va tashqi muhit (mehnat bozori, davlat siyosati, global ta'lim tendensiyalari) bilan uzluksiz aloqada bo'ladi. Tizimli yondashuvning afzalligi shundaki, u sifat muammolarini bo'laklarga bo'lib emas, balki kompleks va o'zaro bog'liq holda hal etadi.
3	Vaziyatli yondashuv	Boshqaruv qarorlarini umumiy holda emas, balki aniq sharoit va vaziyatga mos holda qabul qilish zarurligini ko'rsatadi. Oliy ta'lim tizimida bu yondashuv turli omillar - talabalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv fanining xususiyati, bozor talablari, texnologik imkoniyatlar va tashkiliy resurslarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Natijada boshqaruvning moslashuvchanligi ortadi va ta'lim sifatini oshirishda muammoga individual yondoshiladi.
4	Miqdoriy (matematik-statistik) yondashuv	Ta'lim sifatini obyektiv baholash imkonini beruvchi muhim uslubiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuvda statistik tahlil, ekonometrik modellar, indikatorlar tizimi va reyting baholash usullaridan foydalaniladi. Masalan, talabalar bilimni baholash, bitiruvchilarni bandlik darajasi, ilmiy faoliyat natijalari kabi mezonlar son jihatdan tahlil qilinadi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash, prognozlash va risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.
5	Xulq-atvor yondashuv	Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim sifati ko'p jihatdan professor-o'qituvchilar va talabalar motivatsiyasi, ularning psixologik holati, ijtimoiy muhit va tashkilot madaniyatiga bog'liqdir. Xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni rag'batlantirish va qulay ish muhitini yaratish orqali ta'lim jarayoni sifati oshiriladi. Bu yondashuv zamonaviy "inson kapitali" nazariyasi bilan hamohangdir.
6	Tizimli-tuzilmaviy yondashuv	Ta'lim tizimini uning ichki tuzilmasi, elementlari va ular o'rtasidagi funksional bog'liqlik asosida tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu yondashuv sifatni ta'minlovchi komponentlarni aniqlash va ularning o'zaro ta'sirini optimallashtirish imkonini beradi.
7	Maqsadli dasturlash	Aniq strategik maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun kompleks dasturlar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuvda resurslar maqsadga muvofiq taqsimlanadi va natijadorlik monitoring qilinadi.

Ilmiy adabiyotlarda sifatni boshqarish ko'p qirrali va yaxlit jarayon sifatida qaraladi, ya'ni u alohida boshqaruv funksiyalari yig'indisi emas, balki o'zaro bog'liq elementlar, jarayonlar va yondashuvlarning yagona tizimda uyg'unlashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, zamonaviy oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti turli uslubiy yondashuvlar uyg'unligida amalga oshiriladi va bu yondashuvlar ta'lim sifatini ta'minlash hamda oshirishning nazariy-uslubiy asosini tashkil etadi. Bunday yondashuv sifat menejmentini murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tushunishga imkon beradi (1-jadval).

Zamonaviy oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti turli yondashuvlarning integratsiyasi asosida joriy etiladi. Har bir yondashuv o'ziga xos nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning kompleks qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini ta'minlash va oliy ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Sanab o'tilgan yondashuvlarning har biri alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega

bo'lib, ular sifat menejmentining turli jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning o'zaro bog'liqligi va integratsiyasi kompleks boshqaruv tizimini shakllantirish imkonini beradi. Haqiqatan ham, mazkur yondashuvlar dastlab asosan ishlab chiqarish sohasida shakllangan bo'lib, unda standartlashtirish, samaradorlik va natijadorlik ustuvor o'rin egallaydi. Biroq, ta'lim sohasi o'zining ijtimoiy, madaniy va intellektual xususiyatlari bilan ishlab chiqarish sohasidan tubdan farq qiladi. Shu sababli, ta'lim tizimida ushbu yondashuvlarni qo'llashni va transformatsiya qilishni, ya'ni moslashtirishni talab etadi. Xususan, ta'lim tashkilotlarining o'ziga xosligi, inson omilining ustuvorligi, bilim va kompetensiyalarning nomoddiy xarakteri, shuningdek, milliy va madaniy qadriyatlarining muhim o'rni bilan belgilanadi. Demak, ta'lim sifatini boshqarishda nafaqat iqtisodiy va texnologik omillar, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy omillar ham inobatga olinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish ko'p omilli va murakkab jarayon ekanligini tasdiqladi. Ta'lim sifatini ta'minlash faqat o'quv jarayonini takomillashtirish bilan cheklanmay, balki boshqaruv tizimi, inson resurslari, infratuzilma va tashqi muhit omillari bilan uzviy bog'liq holda shakllanishi aniqlandi. Uslubiy yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, jarayonli, tizimli, vaziyatli va miqdoriy yondashuvlarning uyg'un holda qo'llanilishi oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda inson omilining ustuvorligi, ya'ni professor-o'qituvchilar malakasi, talabalar motivatsiyasi va tashkilot madaniyatining rivojlanganlik darajasi hal qiluvchi omillardan biri ekanligi asoslandi. Zamonaviy sharoitda ta'lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va analitik vositalardan foydalanishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tizimini uslubiy yondashuvlar integratsiyasi asosida rivojlantirish;
- ta'lim jarayonlarini boshqarishda natijadorlikka yo'naltirilgan indikatorlar tizimini joriy etish;
- professor-o'qituvchilar malakasini muntazam oshirish va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- ta'lim sifatini baholashda statistik va raqamli tahlil vositalaridan keng foydalanish;
- ta'lim xizmatlarini bozor talablari va mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini tizimli va ilmiy asosda boshqarish ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-yil 1-may 120 b. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637 “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-5013007>

3. Navruz-Zoda B.N. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida sifat ta’minoti. - T.: 2008. - 245 b.

4. Musayev B.Sh. Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. Samarqand: SamISI, 2024.

5. Nizamov A.B., G‘afurova Sh.K. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish tizimini modellashtirishning uslubiy yondashuvlari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari. 22-23.04.2024. 155-160 betlar. <https://phoenixpublication.uz/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**